



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xoldarova Irodaxon Valijonovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) professor

Email: irodaxoldarova70@gmail.com

Jo‘rayeva Shodiya Kenjaali qizi FarDU magistr 1-bosqich talabasi

Email: jorayevabonu03@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini rivojlantirishda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Unda o‘quvchilarda o‘qish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish, mustaqil o‘qishga rag‘bat uyg‘otishning samarali metodlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, savodxonlik, o‘qishga qiziqish, harf-tovush usuli, didaktik o‘yinlar, yozuv ko‘nikmalari, oila bilan hamkorlik, interaktiv metodlar, mustaqil o‘qish, tafakkurni rivojlantirish.

Аннотация: В данном тезисе освещается важность формирования интереса к чтению в развитии грамотности учащихся начальных классов. В ней проанализированы эффективные методы формирования у учащихся положительного отношения к учебному процессу, стимулирования самостоятельного обучения.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность, интерес к чтению, буквенно-звуковой метод, дидактические игры, навыки письма, сотрудничество с семьей, интерактивные методы, самостоятельное чтение, развитие мышления.

Abstract: This thesis highlights the importance of forming interest in reading in the development of literacy of primary school students. It analyzes effective methods of forming a positive attitude towards the learning process in students, stimulating independent learning.

Keywords: primary education, literacy, interest in reading, letter-sound method, didactic games, writing skills, cooperation with the family, interactive methods, independent reading, development of thinking.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, o‘quvchilarning savodxonligi va bilim sifatini oshirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 5-maydagi PF–76-son “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni** ta‘lim tizimida sifatni oshirish, baholash va nazorat mexanizmlarini yangilashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur Farmonda ta‘lim jarayonlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, sifatni doimiy baholab borish, shuningdek, o‘quvchilar bilimini xalqaro

standartlar darajasida shakllantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, unda quyidagicha qayd etilgan:

“Ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga yo'naltirish, o'qitish metodlarini yangilash ta'lim sifatini oshirishning asosiy omilidir.”¹

Mazkur g'oya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar hamda nutq madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ushbu mavzuni o'rganish, mavjud tajribalarni tahlil qilish va yangi samarali usullarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini rivojlantirishda o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Chunki o'quvchilarda o'qish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni uyg'otish, ularni mustaqil o'qishga undash savodxonlikning poydevorini mustahkamlaydi. Bu jarayonda rang-barang, qiziqarli va bolalar yoshiga mos matnlardan, hikoya va she'rlardan foydalanish samaralidir. O'quvchilarga o'z qiziqishlariga mos kitoblarni tanlash imkoniyatini berish esa ularning mustaqil fikrlashini, matnga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Shu orqali o'quvchi nafaqat o'qish ko'nikmasini, balki tahliliy va mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Natijada o'qishga qiziqish uyg'otish orqali savodxonlik jarayoni tabiiy, ongli va samarali kechadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda mustaqil tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarning o'qish darslariga qiziqishini o'stiruvchi vositalardan biri didaktik o'yin hisoblanadi. O'yinning maqsadi ta'lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg'otishdir. Didaktik o'yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi o'yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim².

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini rivojlantirishda harflar va tovushlarni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. “*Harf-tovush*” usuli orqali o'quvchilar harflarni ularning talaffuzi bilan bog'lab o'rganadilar, bu esa o'qish ko'nikmasining shakllanishini tezlashtiradi. Ovoqli o'qish mashqlari orqali to'g'ri talaffuz, nutq ravonligi va eshituv idroki rivojlanadi. Shuningdek, o'yin asosida tashkil etilgan “*Gapirayotgan harflar*” kabi mashg'ulotlar bolalarda harflarni yodda saqlashni osonlashtiradi. Matnni tushunish ko'nikmasini shakllantirishda esa *savol-javob usuli*, matnning mazmunini *qayta hikoya qilish* yoki *qisqartirib aytish* kabi metodlar qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, asosiy g'oyani ajrata olish va mustaqil fikr bildirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muntazam mashq qilish muhimdir. Harflar va so'zlarni ko'chirish orqali bolalar

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7513052#-7516550>

² Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Karimova F., Saydaliyeva G., Kabilova Z. *3-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma*. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa AK Bosh tahririyati, 2016.

yozishdagi aniqlik, tartib va harf shaklini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar. Masalan, “*Rassom-yozuvchi*” usuli esa ularning ijodiy fikrlashini kuchaytirib, rasm asosida matn tuzish orqali tasavvurini boyitadi.

Ta‘lim jarayonida oila bilan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. Ota-onalarga yo‘riqnomalar berish, “*Kitobxon oila*” kabi aksiyalar tashkil etish orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda savodxonlikni mustahkamlashga erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini rivojlantirishda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish, harf va tovushlarni o‘rgatishda interaktiv usullarni qo‘llash, shuningdek, yozuv ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, “*Rassom-yozuvchi*” va “*Do‘stlar bilan o‘qish*” kabi usullar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish — ota-onalar ishtirokida “*Kitobxon oila*” kabi tashabbuslarni amalga oshirish — savodxonlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 5-maydagi PF–76-son “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni.**

<https://lex.uz/uz/docs/-7513052#-7516550>

2. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Karimova F., Saydaliyeva G., Kabilova Z. *3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma.* – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa AK Bosh tahririyati, 2016.

3. Karimov M. *Boshlang‘ich ta‘limda savod o‘rgatish asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

4. Tursunova G. *Boshlang‘ich sinfda dars samaradorligini oshirish yo‘llari.* – Samarqand: Ma‘rifat, 2018.

5. Rasulova D. *Interfaol metodlar va ularning darsdagi o‘rni.* – Buxoro: BuxDU, 2020.

6. T. G‘afforova «*Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar*», T., 2011-yil

7. Sh. Jo‘rayeva “*Boshlang‘ich sinflarda matn va nutq tushunchasi*”
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11044870>

8. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo‘ldosheva “*Savod o‘rgatish darslari*”-T.: “O‘qituvchi” nashriyoti